

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–noyabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yilning yanvar–noyabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **46 870,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda **15,6** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning yanvar–noyabr oylarida xizmatlar hajmi **37 190,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda **13,2** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
yanvar–noyabr, mlrd so'mda ¹



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **25,6** %, ya'ni **11 979,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda ushbu hududda **19,6** %ga oshgan. Andijon shahridan tashqari, tumanlar kesimida eng yuqori hajm Asaka (**2 105,4** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,5** %ini egalladi), Andijon (**1 897,8** mlrd so'm, **4,0** %) va Shahrixon tumanida (**1703,0** mlrd so'm, **3,6** %) kuzatildi. Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **446,1** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,0** %ini tashkil etdi.

¹ 2023-2025- yillarning yanvar–noyabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	46 870,3	100,0	115,6
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	11 979,1	25,6	119,6
Xonobod sh.	742,0	1,6	118,9
Oltinko'l	1 282,9	2,7	117,1
Andijon	1 897,8	4,0	118,2
Baliqchi	1 684,0	3,6	115,3
Bo'ston	493,0	1,1	118,4
Buloqboshi	951,1	2,0	116,7
Jalaquduq	1 403,0	3,0	119,2
Izboskan	1 516,3	3,2	119,1
Ulug'nor	446,1	1,0	117,0
Qo'rg'ontepa	1 543,1	3,3	117,6
Asaka	2 105,4	4,5	116,9
Marhamat	1 307,3	2,8	116,6
Shahrixon	1 703,0	3,6	117,7
Paxtaobod	1 198,0	2,6	117,3
Xo'jaobod	1 540,2	3,3	117,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahridan tashqari viloyatning boshqa hududlarida, xususan, Jalaquduq (**119,2 %**), Izboskan (**119,1 %**), Xonobod (**118,9 %**), Bo'ston (**118,4 %**) va Andijon tumanlarida (**118,2 %**) kuzatildi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Baliqchi tumanida (**115,3 %**) va Marxamat tumanlarida (**116,6 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida Andijon viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 452,6** ming so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davridagi (**10 874,5** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **2 578,1** ming so'mga, ya'ni **13,5 %**ga o'sish qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **24 112,5** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **5 027,0** ming so'mga (**16,9 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Xonobod shahar (**15 888,8** ming so'm), Xo'jaobod (**12 501,6** ming so'm) va Baliqchi (**7 599,5** ming so'm) tumanlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**5 104,8** ming so'm) qayd etildi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2025- yil yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	13 452,6	113,5
shahar va tumanlar:		
Andijon sh.	24 112,5	116,9
Xonobod sh.	15 888,8	117,4
Oltinko'l	6 572,1	115,8
Andijon	6 433,2	115,6
Baliqchi	7 599,5	113,2
Bo'ston	6 139,7	115,9
Buloqboshi	6 061,6	114,7
Jalaquduq	6 904,7	117,4
Izboskan	5 789,6	117,0
Ulug'nor	6 926,3	116,3
Qo'rg'ontepa	6 544,2	115,7
Asaka	5 777,6	114,8
Marhamat	6 837,4	114,5
Shahrixon	5 104,8	115,4
Paxtaobod	5 600,8	115,3
Xo'jaobod	12 501,6	115,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Deyarli barcha hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati **10 %**dan oshdi. Eng yuqori o'sish sur'ati Xonobod shahrida va Jalaquduq tumanida (**117,4 %**), Izboskan (**117,0 %**), Andijon shahar (**116,9 %**) va Bo'ston tumanlarida (**115,9 %**) qayd etildi. Bu esa mazkur hududlarda ko'rsatilgan xizmatlarning sifati va turfa xilligining jadal oshib borayotgani, shuningdek, ularning investitsion jozibadorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **33 909,0** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **72,3 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **11,5 %**ga o'sishi kuzatildi.

Tumanlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Baliqchi (**82,2 %**), Marhamat (**78,3 %**), Jalaquduq (**69,1 %**), Qo'rg'ontepa (**65,4 %**) hamda Oltinko'l (**63,8 %**) tumanlarida kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Andijon shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**61,9 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi viloyat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **7 413,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa shaharning bozor xizmatlari ko'p pog'onali tuzilmasi shakllanganini ko'rsatadi. Bu yerda yirik tashkilotlar va kichik biznes muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa moliya sektori, AKT, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohalarida bu aniq ko'rinadi.

Xonobod shahar, Bo'ston va Xo'jaobod tumanlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Bo'ston tumanida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **276,1** mlrd so'mni, Xonobod shahrida **397,8** mlrd so'mni, Xo'jaobod tumanida esa **873,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmdagi Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	30 289,3	72,2	111,3
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	6 483,5	61,8	110,7
Xonobod sh.	371,9	54,1	113,6
Oltinko'l	772,2	65,1	112,3
Andijon	1 028,4	59,3	112,9
Baliqchi	1 230,7	80,7	112,6
Bo'ston	260,9	58,6	112,4
Buloqboshi	507,6	58,9	111,6
Jalaquduq	859,4	70,4	118,3
Izboskan	840,7	62,5	118,2
Ulug'nor	243,5	61,0	111,8
Qo'rg'ontepa	892,5	63,5	112,5
Asaka	1 145,4	58,2	111,3
Marhamat	911,9	76,5	113,2
Shahrixon	978,2	63,1	112,6
Paxtaobod	681,5	63,0	111,8
Xo'jaobod	792,9	55,6	113,1

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yilning 27- fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**45,9 %**ga; umumiy o'sishga **7,0** foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (**13,6 %**ga; **2,2** f.b.), savdo xizmatlari (**9,5 %**ga; **1,7** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**8,1 %**ga; **2,0** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**18,0 %**ga; **0,6** f.b.), boshqa xizmatlar (**16,4 %**ga; **0,6** f.b.), sog'liqni



saqlash sohasidagi xizmatlar (**19,5** %ga; **0,3** f.b.), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**8,2** %ga; **0,1** f.b.) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (**7,1** %ga; **0,2** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**21,8** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**13,0** %ga) va shaxsiy xizmatlar (**10,6** %ga) o'sib, **0,9** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025- yilning yanvar–noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,4** %, savdo xizmatlari **19,0** %, transport xizmatlari **16,8** %, moliyaviy xizmatlar **16,1** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,5** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5** % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
yanvar–noyabr

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	37 190,9	46 870,3	115,6
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 259,4	1 643,5	118,0
moliyaviy xizmatlar	5 116,6	7 554,8	145,9
transport xizmatlari	6 110,3	7 881,9	113,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 549,1	7 124,8	112,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	10 292,4	12 397,1	108,1
savdo xizmatlari	7 697,8	8 922,6	109,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	638,7	820,8	108,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 339,0	1 657,7	107,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	648,7	819,4	119,5
ijara xizmatlari	525,0	693,8	121,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	754,3	911,7	113,0
shaxsiy xizmatlar	1 317,1	1 661,6	110,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	223,5	237,2	97,8
boshqa xizmatlar	1 268,1	1 668,2	116,4


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2024- yilning yanvar–noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **2 104,7** mlrd so'mga oshib, **12 397,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **98,9** % darajasida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi

2025- yil yanvar-noyabr




2025- yilning yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi **7 881,9** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,4 %**.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi

2025- yil yanvar-noyabr



2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **1 224,8** mlrd so'mga oshib, **8 922,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **72,2 %**ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **13,8 %**ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **14,0 %**ni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 438,3** mlrd so'mga oshib, **5 116,6** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **45,9 %**ga o'sdi.


2025- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **80,2 %**ni tashkil etdi.

Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **2,0 %** darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **17,8 %**ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 643,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu tarmoqda eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari egallab, **79,5 %**ni, o'sish sur'ati esa **113,5 %**ni tashkil etgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi

2025- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda



2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 657,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **60,4 %**ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**820,8** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **99,8 %** darajasida qayd etildi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **819,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **119,5 %** ni tashkil etgan.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi (**693,8** mlrd so'm) eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **80,5 %**ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;



d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati





O'zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo'mitasi
Andijon viloyati statistika
boshqarmasi

E'lon qilish sanasi:
20.12.2025- y.

PRESS-RELIZ

*Andijon viloyatida
Xizmatlar sohasining
asosiy ko'rsatkichlari*